XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-iyul VI-68-85-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

2024-yil 1-chorak mahalliy byudjetining daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi mablag‘larining hozirgi kunda ishlatilmay turgan mablag‘ hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksi 119, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 119, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abduraimov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov) birgalikda:

- 2024-yil 1-chorak daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi mablag‘lari **981 811 000** so‘mni tashkil etganligini ushbu mablag‘dan hozirgi kunda ishlatilmay turgan 9 490 000 mln so‘m tashkil etganligini inobatga olib, ushu mablag’ni quyidagi yunalishlarga;

- tuman hokimligiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2022-yil 18-yanvardagi 30-son qaroriga asosan “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tadbirining tuman bosqichida g‘olib bo‘lgan besh nafar ishtirokchilarini ta’qdirlan uchun 8 500 000 so‘m;

- tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga Jinoyat ishlari bo‘yicha Oltinsoy tuman Sudining 2023-yildagi №1-1910-2301/134 sonli jinoyat ishi sud majlisida qo‘shimcha ishtirok etgan tarjimon Jumaqulov Jamshid Panjievichning xizmat haqi uchun 990 000 so‘m mablag‘ ajratilsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

4.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



MAXMATRAYEMOV
BAXROM OMONOVICH